

BADIIY TARJIMA VA UNING TARIXI, TURLARI, RIVOJLANISHI VA LINGVISTIKADAGI AHAMIYATI

Axrorova Ruzixon Usmonovna

FarDU dotsenti

Qosimova Zaynabxon Zokirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Magistratura bo‘limi

lingvistika fransuz tili 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tarjimashunoslik, xususan badiiy tarjimaning ahamiyati, matnlar yoki asarlarning bir tildan o‘zga tilga tarjima qilinayotgan jarayondagi qiyinchiliklari, tarjimashunos adiblar tarjimaning va tilning aynan qaysi jihatlariga ahamiyat berishlari kerakligini va yozuvchining tasvirlagan badiiy obrazlarini va badiiy o‘xshatishlarni xuddi asli kabi ma‘noli chiqishi uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerakligini bildiradi.

Kalit so‘zlari: Badiiy tarjima, tarjima termini, dunyo tarjimashunoslari, o‘zbek adabiyotidagi tarjimashunos adiblar, tarjimachilik an‘analari.

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima turli davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham keng rivojlangan.

Zamonlar osha Tarjimaga bo‘lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san‘ati ekanligi o‘zgarmaydi. Tarjimaning ko‘lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma‘rifiy darajasiga bog‘liq va, o‘z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta‘sir etadi. “Tarjima” termini bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

Badiiy Tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san‘at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — aloxida «badiiy voqelik» unsuridir. Tarjimada ana shu obrazliifodaviy tildagi badiiy ma‘noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o‘tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur

jarayenini yangidan idrok etadi. Zamonaviy Tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini kayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, Tarjima chilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon qammavaqt o'z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezonini bo'lib xizmat qiladi.

20-a. o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va b. badiiy Tarjima sohasida ham samarali ijod qilganlar. Badiiy Tarjima sohasida M. Osim, N. Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V. Ro'zimatov, Q. Mirmuhamedov, A. Rashidov, M. Hakimov, I. G'afurov, M. Mirzoidov, g'. To'rabekov, Tarjima Alimov va b. professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiysiyosiy adabiyotlar Tarjima chiligida g'am katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R. Abduraxdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, 3. Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta.

O'zbek tiliga tarjima qilingan ko'pchilik asarlar bilvosita (ko'pincha rus tili orqali) tarjima qilingan. Bunda asliyatdagi ma'no va mazmun yo'qolish ehtimoli mavjud. Bugungi kunda she'riyat tarjimasi va unda uchraydigan elementlar : qofiya, radif, raviy, turoqlar, hojib va boshqa unsurlarni tarjima tiliga o'tkazish juda ham qiyin masala hisoblanadi. Ularni tarjima jarayonida qanday berish kerakligi, asliyatdagi qofiya, ma'no va mazmunni qanday saqlash kerakligi juda ham muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Masalan, milliylikka xos so'zlar kelib qolganida qanday qilib uni she'riy tarjimada aks ettirish tarjimonni biroz chuqur o'yg'a toldiradi. Shuningdek, tanlangan mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, tarjima qilinayotgan tilning, xususan, u tilda yaratilayotgan turli badiiy asarlarning ijtimoiy hayotimizga kirib kelishi, axborot almashinuvida tutgan o'rni, fan va taxnika, adabiyot va san'at rivojidagi salmoqli hissasi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan esa o'zbek tilining mavjud imkoniyatlarini ishga solish, bu asosda to'g'ridan to'g'ri asl nusxadan tarjimani amalga oshirish va vositachi til xizmati harakatini o'zbek tili doirasida minimal darajaga tushirish, vazn, qofiya, ritm, turoq, raviy va hokazolarni ta'minlanishini yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Bundan korinib turibdiki tarjimashunos olimlar adiblar turli tillardagi asarlarni shunchaki baiylashtirib, sayqallab, qofiya va grammatik til stururasiga polish bilan birgalikda u kitobxonlar uchun ham tushunilishi oson bolishi va eng asosiysi adibning mavuzga bo'lgan fikrlarini qanday bo'lsa xuddi o'sha ma'noda tarjima qilib o'quvchilarga yetkazib berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Турсунова, М. (2023). СТАРОФРАНЦУЗСКИЙ ЯЗЫК В IX-XIII ВЕКАХ. SCHOLAR, 1(31), 84-88.
2. Турсунова, М. (2023). ЛАТЫНЬ КАК ЯЗЫК СОЦИАЛЬНОГО ПРОГРЕССА СТАРОФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА. SCHOLAR, 1(31), 89-92.
3. Турсунова, М. (2023). СИНТАКСИС В СТАРОФРАНЦУЗКАХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ. SCHOLAR, 1(16), 73-77.
4. Турсунова, М. (2023). ГРАММАТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СТАРОФРАНЦУЗКАХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ. SCHOLAR, 1(16), 78-81.
5. Турсунова, М. (2023). МЕСТОИМЕНЕНИЯ И ДЕТЕРМИНАНТЫ В СТАРОФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 307-309.
6. Bavoux Claudine, Le français de Madagascar. Contribution à un inventaire des particularités lexicales, Bruxelles, De Boeck & Larcier, 2000.
7. Bernstein Basil, Langage et classes sociales, Paris, Minuit, 1975.
8. Berrendonner Alain, Le Guern Michel, & Puech Gilbert, Principes de grammaire polylectale, Lyon, Presses Universitaires de Lyon, 1983.
9. Biber Douglas, Variation across Speech and Writing. Cambridge, Cambridge University Press, 1988.
10. Billiez Jacqueline & Robillard Didier de édés, ‘Français : variations, représentations, pratiques’, Cahiers du français contemporain, n° 8, Lyon, ENS éditions, 2003.